

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Xusanov Murodjon Sunnatullayevich

Qo'qon universiteti

“Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrası

v.b. dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

“Marketing va PR” departamenti boshlig'i o'rinbosari,

“Qabul komissiyasi” bosh koordinatori.

ORCID - 0009-0005-4304-5801

E-mail: murodjon_0202@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yalpi ichki mahsulot (*YaIM*)ning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Tadqiqotda YaIM iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi sifatida mamlakat iqtisodiy salohiyatini baholashdagi roli, uning tarkibiy tuzilmasi hamda dinamik o'zgarishlari o'rganilgan. Shuningdek, YaIM o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy muvozanat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, inflyatsiya, bandlik, investitsiya va tashqi savdo balansining YaIMga ta'siri iqtisodiy tahlil asosida yoritilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi YaIM o'sish tendensiyalari amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida YaIMni oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, innovatsion iqtisodiyot, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yalpi ichki mahsulot, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, investitsiya, bandlik, innovatsion rivojlanish.

Аннотация

В данной статье исследуется роль и значение валового внутреннего продукта (*ВВП*) в обеспечении макроэкономической стабильности. В исследовании рассматривается ВВП как основной показатель экономического роста, его структура и динамические изменения при оценке экономического потенциала страны. Также анализируется взаимосвязь между темпами роста ВВП и макроэкономическим равновесием, а также влияние инфляции, занятости, инвестиций и торгового баланса на уровень ВВП. В статье на основе практических данных проанализированы тенденции роста ВВП Республики Узбекистан за последние годы и выявлены факторы, влияющие на устойчивое развитие экономики. Результаты исследования показывают необходимость укрепления макроэкономической стабильности за счет увеличения ВВП, внедрения инновационной экономики, повышения эффективности производства и цифровизации.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, макроэкономическая стабильность, экономический рост, инфляция, инвестиции, занятость, инновационное развитие.

Abstract

This article analyzes the role and significance of Gross Domestic Product (*GDP*) in ensuring macroeconomic stability. The study examines *GDP* as the main indicator of economic growth, its structure, and dynamic changes in assessing a country's economic potential. Furthermore, the interrelation between *GDP* growth rates and macroeconomic equilibrium, as well as the effects of inflation, employment, investment, and the trade balance on *GDP*, are discussed through economic analysis. The article provides an analytical overview of Uzbekistan's *GDP* growth trends in recent years based on empirical data, identifying the main factors influencing sustainable economic development. The results highlight the importance of enhancing *GDP* through innovation, increasing production efficiency, and implementing digital technologies to strengthen macroeconomic stability.

Keywords: Gross Domestic Product, macroeconomic stability, economic growth, inflation, investment, employment, innovative development.

KIRISH

O'zbekistonda ham milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasining o'zni va ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Alohida ta'kidlash joizki, jahondagi rivojlangan davlatlarda YaIMdagi xizmatlar sohasining salmog'i 65 %-80 %ni tashkil etayotgan bir paytda, O'zbekiston Respublikasining YaIMda xizmatlar sohasining ulushi, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023-yil yakunlari bo'yicha 41,6 %ni tashkil etadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida (*21-maqсад*) ham "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish" va "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish"¹ (*34-maqсад*) masalalari alohida vazifa sifatida belgilangan. Shu jumladan:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish;
- Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash;
- Har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini "Fuqarolar byudjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvar PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

- Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSH dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash;

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu — Yalpi ichki mahsulot (*YaIM*) hisoblanadi. *YaIM* nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini, balki iqtisodiyotda yaratilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklarning umumiy hajmini ifodalaydi. U orqali ishlab chiqarish samaradorligi, aholi farovonligi, investitsion faollik va davlatning iqtisodiy siyosati natijalari baholanadi. Shu bois *YaIM* ko'rsatkichining to'g'ri aniqlanishi va tahlil qilinishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, xususan, iqtisodiy liberallashtirish, raqamli transformatsiya, soliq-byudjet siyosatining optimallashtirilishi va investitsion muhitning yaxshilanishi natijasida *YaIM* o'sish sur'atlarida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiyotdagi beqarorlik, tashqi bozorlardagi o'zgarishlar, inflyatsiya va resurslar ta'minotidagi muammolar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan *YaIM* mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini, ijtimoiy farovonlik darajasini va ishlab chiqarish salohiyatining o'sishini belgilovchi asosiy indikator sifatida qaraladi. Shu sababli, *YaIM*ning o'sish omillarini aniqlash, uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda *YaIM* o'sishi bilan makroiqtisodiy muvozanat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil etish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi yalpi ichki mahsulotning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini va ahamiyatini iqtisodiy tahlil asosida yoritish, shuningdek, O'zbekiston misolida *YaIM* o'sish tendensiyalari va ularni shakllantiruvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy mazmuni va hisoblash usullarini tahlil qilish;
- Yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlarining makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish;
- O'zbekiston iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot o'sishining asosiy drayverlarini aniqlash;
- Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun yalpi ichki mahsulot tarkibini diversifikatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Shu tarzda, mazkur tadqiqot mamlakat iqtisodiy siyosatining samaradorligini baholashda, barqaror rivojlanishni ta'minlashda hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yalpi ichki mahsulot (*YaIM*) tushunchasi va uning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini bo'yicha ko'plab iqtisodchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu borada klassik iqtisodiyot namoyandalari A. Smit, D. Rikardo, J.B. Sey

kabi olimlar milliy boylikning yaratilishi va uni o'ldash masalalariga asos solganlar. Keyinchalik J.M. Keyns o'zining "Umumiy nazariya" asarida milliy daromad va bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, yalpi mahsulot hajmini barqarorlashtirishda davlat siyosatining rolini asoslab bergan.

X.Gafurov tomonidan kichik biznes faoliyatini mamlakat yalpi ichki mahsulotini oshirishdagi o'rni va bu faoliyat turini yuritish hamda rivojlantirish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan va olingan natijalar bayon qilingan. O'zbekiston Respublikasi hududi miqyosida o'tkazilgan so'rovnoma jami 320 nafar kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar ishtirok etgan. So'rovnoma natijasida eng ko'p uchraydigan muammolar resurslarni notekis taqsimlanishi, adolatsiz raqobat, iste'molchilarni o'zgaruvchan xohish-istaklari kabilar ekanligi aniqlangan. Resurslarning notekis taqsimlanishi muammosini hal qilishda kichik biznes uchun soliq bo'yicha imtiyozlar berish zarurligi ta'kidlangan. Yirik kompaniyalarning adolatsiz raqobat amaliyotiga kirishish imkoniyatlarini cheklash uchun har bir davlat o'zining monopoliyaga qarshi qonunlarni kuchaytirishi lozim. Iste'molchilarning o'zgaruvchan xohish-istaklar muammosini bartaraf etishda ularni ehtiyojlari va umidlarini tushunish uchun mijozlar bilan muntazam ravishda muloqot qilish zarur. Maqolaning oxirida mazkur muammolarning yechimlari haqida umumiy xulosa va takliflar berib o'tilgan¹.

B. Turanboyev tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulotiga ba'zi soliq turlarining ta'sirini o'rganish jarayoni tatbiq etilgan. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad qilib, yalpi ichki mahsulotga soliqlarning ta'siri qandayligini o'rganishdir, ya'ni YaIMga bu soliq turlari to'g'ri yoki teskari proporsional bog'langanligini aniqlash. Ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistika qo'mitasi sayti hamda Open byudjet saytining ikkilamchi ma'lumotlar bazasidan 2015-yildan 2022-yilgacha bo'lgan yillik statistik ma'lumotlar olingan. Tahlil qilish jarayonida korrelyatsion va regressiyon tahlillardan foydalanilgan. Korrelyatsion tahlil jarayonida yalpi ichki mahsulot bilan soliqlar o'rtasida kuchli bog'lanish mavjudligi aniqlangan².

G. Sharifova tadqiqot ishida yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari va inflyatsiya darajasining makroiqtisodiy barqarorlikka ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish va narxlar darajasining o'zgarishi mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanat, ish bilan bandlik, investitsiyalar hajmi va aholining real daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda o'sishi va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari hamda iqtisodiy siyosat choralarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyoti misolida so'nggi yillardagi statistik

¹ Maxsudovich, G. X., & Akramjon o'g'li, A. S. (2023). Mamlakat yalpi ichki mahsulotini rivojlantirishda kichik biznesni o'rni va duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar tahlili. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 68-71.

² Qodirjon o'g'li, B. T., & Ortiq o'g'li, M. J. (2023). Mamlakat yalpi ichki mahsulotiga soliq turlarining ta'siri. qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 53-60.

ko'rsatkichlar asosida real holat tahlil qilinadi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'llari taklif etilgan¹.

METADOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida yalpi ichki mahsulotning tarkibi, o'sish dinamikasi va uni shakllantiruvchi asosiy omillar tizimli tahlil qilindi. YaIM va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida statistik, qiyosiy, korrelyatsion-regression hamda indeks tahlil usullaridan foydalanildi. Ayniqsa, YaIMning inflyatsiya, bandlik, investitsiya va tashqi savdo balansiga ta'sirini aniqlashda miqdoriy tahlil yondashuvi qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasining 2020–2024-yillar davridagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida YaIMning o'sish sur'atlari, tarmoqlar kesimidagi o'zgarishlar va ularning barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida Yalpi ichki mahsulot hajmi va tarkibidagi o'zgarishlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri baholanib, milliy iqtisodiyotda YaIMni oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi tizimli, analitik va empirik yondashuvlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror o'sishni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida yalpi ichki mahsulot (*YaIM*) ko'rsatkichi mamlakat iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish hajmi, aholi farovonligi va makroiqtisodiy barqarorlik darajasini baholashda asosiy indikator sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. YaIM dinamikasining o'zgarishi nafaqat ishlab chiqarish hajmining o'sishi yoki pasayishini, balki iqtisodiy tizimdagi ichki muvozanat, resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik, iste'mol va jamg'arma nisbatlari kabi omillarni ham bevosita aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 2010–2024-yillar oralig'idagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, YaIMning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rni iqtisodiy-statistik va iqtisodiy-matematik metodlar asosida baholandi.

Tahlil davomida foydalanilgan metodologik yondashuvlar orasida dinamik qatorlar tahlili, korrelyatsion-regression tahlil, struktura va indeks tahlili, shuningdek komparativ (*taqqoslama*) tahlil usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida YaIMning o'sish sur'atlari, uning tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlar, tarmoqlar kesimidagi ulushlar, inflyatsiya, ishsizlik, investitsiyalar hajmi, eksport-import muvozanati kabi ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlanib, ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 2017-yildan keyingi davrda O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur strukturaviy o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, YaIM tarkibida

¹ Abdunabiyevna, S. G. (2025). Yalpi ichki mahsulot o'sishi va inflatsiya darajasining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri. *Imras*, 8(6), 96-105.

xizmatlar sohasi ulushi sezilarli darajada ortib, 2023-yil holatiga ko'ra umumiy hajmning 48 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Sanoatning ulushi 30 % atrofida, qishloq xo'jaligining ulushi esa 23 %dan 17 %gacha qisqargan. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv jarayonini va ishlab chiqarishning yuqori qo'shimcha qiymatli tarmoqlarga yo'nalayotganini ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston YaIM o'sish sur'ati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan eng muhim omillar sifatida kapital qo'yilmalar hajmi ($r=0.89$), eksport hajmi ($r=0.84$) va ishlab chiqarish samaradorligi ($r=0.81$) aniqlandi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi va ishsizlik ko'rsatkichi bilan teskari korrelyatsiya mavjudligi ($r=-0.73$ va $r=-0.68$) iqtisodiy barqarorlik uchun makroiqtisodiy muvozanatni saqlashning zarurligini ko'rsatadi. Regression model asosida hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar hajmi 1%ga oshganda, YaIM o'sish sur'ati o'rtacha 0,45 %ga ortadi, bu esa kapital qo'yilmalar samaradorligining yuqori darajada ekanligini anglatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida YaIM o'sishi ko'p jihatdan ichki talab, investitsion muhit va eksport imkoniyatlarining kengayishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyatning sustligi iqtisodiy o'sish sur'atlarini cheklovchi omillar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiyotning texnologik yangilanishini tezlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini rag'batlantirish va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish orqali YaIMning barqaror o'sishini ta'minlash mumkin. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan, YaIM dinamikasining muhim jihati siklik va volatinlik darajasidir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyoti 2010–2016-yillarda nisbatan barqaror, ammo sekin o'sish bosqichida bo'lgan, 2017–2019- yillarda esa islohotlar natijasida YaIM o'sish sur'atlari o'rtacha 5,3–5,8 % atrofida shakllangan.

2020-yilda pandemiya ta'sirida iqtisodiy faollik pasaygan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab qayta tiklanish bosqichi kuzatildi. Shu jarayonda iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari fiskal barqarorlik, pul-kredit siyosati samaradorligi va tashqi savdo balansini optimallashtirish YaIMning ijobiy o'sish trendini saqlab qolishda muhim omil bo'ldi.

YaIMning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rni, avvalo, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o'sishi va aholi daromadlarining ortishi orqali namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida davlat byudjeti daromadlarining ko'payishiga, investitsion faoliyatning kengayishiga hamda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, YaIM o'sish sur'atlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiy o'sishning sifat jihatlari innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, eksport salohiyati va inson kapitaliga sarmoya kiritish kabi omillar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi zarur.

Tahlil shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan raqamli iqtisodiyot va "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonlari YaIM o'sishining yangi manbalarini shakllantirayotganini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sektorini kengaytirish va ish

o‘rinlari yaratish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, energetika samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari iqtisodiy o‘shishning sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi natijalar asosida aytish mumkinki, YaIM nafaqat iqtisodiy o‘shishning miqdoriy ko‘rsatkichi, balki milliy iqtisodiyotning barqarorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, fiskal mustahkamlik va tashqi iqtisodiy muvozanat darajasini ifodalovchi integral indikator sifatida ham qaraladi. Shu bois, YaIMning o‘shish sur‘atlarini boshqarish, ularni sifat jihatdan takomillashtirish va strukturaviy o‘zgarishlarni muvofiqlashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida YaIMning makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni beqiyos ekanligini, u mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash, siyosiy qarorlar samaradorligini tahlil qilish va kelajakdagi iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda tayanch ko‘rsatkich sifatida xizmat qilayotganini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, YaIMning o‘shish trendlarini chuqur tahlil qilish va ularni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish kelgusida O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yalpi ichki mahsulot (*YaIM*) mamlakat iqtisodiyotining holatini kompleks baholashda eng muhim indikator sifatida makroiqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko‘p o‘lchovli tizimning markaziy elementini tashkil etadi. YaIM nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki iqtisodiyotdagi umumiy faoliyat darajasini, ichki talabning shakllanishini, investitsion muhitning jozibadorligini hamda fiskal va monetar siyosatning samaradorligini ifodalaydi. Shunday ekan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash masalasini tahlil qilishda YaIMning miqdoriy o‘shishi bilan bir qatorda, uning sifat jihatlari, ya‘ni tarkibiy o‘zgarishlar, resurslardan foydalanish samaradorligi, raqobatbardoshlik darajasi va innovatsion salohiyatning ortishi kabi ko‘rsatkichlarni ham chuqur o‘rganish zarurdir.

O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, YaIMning o‘shish sur‘atlari barqaror bo‘lib kelayotgan bo‘lsa-da, bu o‘shishning asosiy manbalari asosan investitsion faollik, xizmatlar sohasi kengayishi va eksport salohiyatining ortishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi yetarli darajada oshmaganligi iqtisodiy o‘shishning sifat ko‘rsatkichlarini chegaralayotgani kuzatilmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, iqtisodiy siyosatda tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlariga ustuvor ahamiyat berish zarurligini taqozo etadi¹.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan korrelyatsion va regression tahlillar makroiqtisodiy muvozanatning asosiy determinanti sifatida investitsiyalar hajmi, eksport hajmi, ishlab chiqarish samaradorligi va inflyatsiya darajasi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini aniqladi. Ayniqsa, kapital qo‘yilmalar hajmi bilan YaIM

¹ Oybek o‘g‘, P. L. S., & Qaxramonjon o‘g‘li, N. A. (2024). Fond bozorida maod rsi indikatorining grafik tahlili. University Research Base, 874-876.

o'sishi o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya iqtisodiy o'sishning investitsion xarakterga egaligini ko'rsatadi. Biroq bu model uzoq muddatli barqaror o'sishni kafolatlamaydi, chunki iqtisodiy o'sish faqat investitsiyalar hajmiga emas, balki ularning samaradorligiga, texnologik yangilanish darajasiga va mehnat unumdorligining oshishiga ham bog'liq.

Shu jihatdan, YaIMning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini tahlil qilishda iqtisodiyotning tarkibiy moslashuvchanligi va ichki tarmoqlar o'rtasidagi balans muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sektorining o'sishi iqtisodiyotda barqarorlikni kuchaytirsa-da, sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanish sur'atlari past bo'lsa, bu uzoq muddatda YaIM o'sishining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, O'zbekistonda ishlab chiqarishning yuqori texnologiyali tarmoqlarini kengaytirish, xususan, qayta ishlash sanoatini modernizatsiya qilish, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sish manbalarini diversifikatsiyalash muhim strategik vazifa hisoblanadi. Muhokamalar jarayonida shuni ta'kidlash joizki, makroiqtisodiy barqarorlikka faqat YaIM hajmi orqali baho berish to'liq tasavvur bermaydi. Chunki barqaror iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarishning o'sishi, balki ishsizlik darajasining pastligi, narxlar barqarorligi, tashqi savdo balansining muvozanati va davlat moliyasi barqarorligi bilan ham tavsiflanadi. Shu bois, YaIM o'sishi bilan bir qatorda, makroiqtisodiy siyosatning fiskal, monetar va tashqi sektor komponentlari uyg'un holda olib borilishi zarur. Masalan, tez o'suvchi YaIM inflyatsiya bosimlarini kuchaytirishi mumkin, bu esa iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, o'sishning barqarorligi uning muvozanatlilik darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston sharoitida YaIM o'sishining ijtimoiy samaradorligi ham muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi muntazam ortib bormoqda, biroq hududlararo iqtisodiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, resurslarni qayta taqsimlash mexanizmlarini kuchaytirish va infratuzilma loyihalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish modeli YaIMning makroiqtisodiy barqarorlikdagi rolini yanada mustahkamlaydi, chunki u iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda, ijtimoiy adolat va farovonlikni ham ta'minlaydi¹.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda YaIMning barqaror o'sishini ta'minlash uchun asosiy e'tibor inson kapitaliga sarmoya kiritish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli transformatsiya va barqaror energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston ham bu yo'nalishda muhim qadamlar tashlamoqda: ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali YaIMning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonlarni yanada tezlashtirish uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, huquqiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy

¹ Oybek o'g, P. L. S., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). The study of value-added tax: knowledge from the eu vat experience and uzbekistan's vat system. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 131-135.

boshqaruv samaradorligini oshirish zarur. Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatdiki, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashda YaIMning o'sish sur'atlari bilan bir qatorda, uning siklga nisbatan sezuvchanligi (*volatinlik*) muhim ahamiyatga ega. Pandemiya (*Covid-19*) davrida YaIMning qisqa muddatli pasayishi O'zbekiston iqtisodiyotining global tashqi zarbalarga nisbatan bardoshli ekanini namoyish etdi. Buning sababi fiskal siyosatning moslashuvchanligi, davlat investitsiyalarining o'z vaqtida amalga oshirilgani va pul-kredit siyosatining yumshoqligi bilan izohlanadi. Shu tajriba makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlatning faol va moslashuvchan siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, YaIMning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini to'g'ri baholash uchun uni kompleks tizimli ko'rsatkich sifatida talqin etish lozim. YaIMning faqat hajm jihatidan emas, balki sifat, tuzilma, samaradorlik va barqarorlik nuqtai nazaridan o'rganilishi iqtisodiy tahlillarni yanada aniq va strategik xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu esa iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda, byudjet va investitsiya dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

YALPI ichki mahsulot (*YaIM*) mamlakat iqtisodiy salohiyatining eng muhim integral ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy faollik darajasini, balki makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy mezonlarini ham ifodalaydi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, YaIM o'sish sur'atlari O'zbekiston iqtisodiyotida ishlab chiqarish, iste'mol, investitsiya, eksport va fiskal barqarorlik kabi ko'plab makroiqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, YaIMni faqat statistik o'lchov sifatida emas, balki iqtisodiy siyosatni baholash va barqaror rivojlanishni rejalashtirish vositasi sifatida ham qarash zarur. Tahlillar shuni tasdiqladiki, 2017-yildan boshlab mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar natijasida YaIMning tarkibida xizmatlar sohasi ulushi keskin oshdi, sanoat tarmoqlari modernizatsiyalandi, eksport yo'nalishlari kengaydi va investitsion faollik sezilarli darajada kuchaydi. Bu jarayonlar mamlakatda iqtisodiy o'sishning yangi sifat bosqichiga o'tishiga asos bo'ldi. Shu bilan birga, tahlil natijalari mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligi yetarlicha yuqori emasligini, bu esa o'sish sur'atlarining sifat jihatidan mustahkamlanishini cheklayotganini ko'rsatdi. Shunday ekan, kelgusida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun o'sishning asosiy drayverlarini inson kapitali, innovatsiyalar, texnologik yangilanish va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Tadqiqotda qo'llanilgan korrelyatsion va regression tahlillar shuni ko'rsatdiki, YaIM o'sishining asosiy omillari sifatida kapital qo'yilmalar, eksport hajmi va ishlab chiqarish samaradorligi ajralib turadi. Biroq inflyatsiya va ishsizlik darajasining yuqoriligi makroiqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari investitsion muhitni yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, narxlar barqarorligini ta'minlash va bandlik siyosatini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Ayniqsa, ishlab chiqarishning yuqori qo'shimcha qiymatli tarmoqlarini rivojlantirish orqali YaIM o'sishining sifatini yaxshilash mumkin. Makroiqtisodiy

barqarorlik nuqtai nazaridan qaraganda, YaIMning o'sishi bilan bir qatorda iqtisodiy o'sishning barqarorlik, muvozanatlilik va inklyuzivlik jihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, iqtisodiy siyosatda miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlarini ham baholovchi tizimni joriy etish zarur. Bunda YaIM o'sishining ijtimoiy samaradorligini, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni, resurslardan foydalanish samaradorligini va ekologik barqarorlikni kompleks tahlil qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvar PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 7 b. // <https://lex.uz/docs/3107036>.
3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/uz/>.
5. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali: <https://data.egov.uz/>.
6. Хусанов, М. С. (2024). Стратегические цели и приоритетные направления развития сектора услуг в Узбекистане. Theory and analytical aspects of recent research, 3(29), 61-69.
7. Maxsudovich, G. X., & Akramjon o'g'li, A. S. (2023). Mamlakat yalpi ichki mahsulotini rivojlantirishda kichik biznesni o'rni va duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar tahlili. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 68-71.
8. Xusanov, M. (2024). Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(7).
9. Qodirjon o'g'li, B. T., Ortiq o'g'li, M. J. (2023). Mamlakat yalpi ichki mahsulotiga soliq turlarining ta'siri. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 53-60.
10. Xusanov, M. S. (2024). O'zbekiston respublikasida xizmatlar sohasi rivojlanishining o'rta va uzoq muddatga makroiqtisodiy prognozlash. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 12, 32-38.
11. Sunnatullayevich, X. M. (2025). Mamlakatimizda xizmatlar sohasi rivojlanishining makroiqtisodiy prognozlash usullari. milliy iftixor, 1(1), 61-73.
12. Abdunabiyevna, S. G. (2025). yalpi ichki mahsulot o'sishi va inflatsiya darajasining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri. Imras, 8(6), 96-105.
13. Хусанов, М. С. (2024). Мамлакат иқтисодиётида соғлиқни сақлаш хизматлари ролининг иқтисодий-статистик таҳлил қилиш. Академические исследования в современной науке, 3(12), 117-121.
14. Oybek o'g, P. L. S., & Qaxramonjon o'g'li, N. A. (2024). Fond bozorida madd rsi indikatorining grafik tahlili. University Research Base, 874-876.
15. Хусанов, М. С. (2024). Анализ основных направлений развития сферы услуг в Узбекистане. Экономика и социум, (8 (123)), 429-439.

16.Oybek o'g, P. L. S., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). The study of value-added tax: knowledge from the eu vat experience and Uzbekistan's vat system. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 131-135.

17.Khusanov, M. S. (2024). Medium and Long Term Macroeconomic Forecast of the Development of the Services Sector. European journal of business startups and open society, 4(7), 58-64.

18. Xusanov, M. (2024). Zamonaviy iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish muammolari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 22-33.

19.Sunnatullayevich, X. M. (2025). Mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilish. Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**